



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida variativ o‘quv rejalarni tajriba-sinovdan o‘tkazish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-son Farmonining ijrosini ta’minlash, umumta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini tashkil etishda zamonaviy yondashuvlarni va ilg‘or xorijiy tajribalarni qo‘llash, o‘quvchilarning qiziqishlarini inobatga olish, maktab o‘quvchilarining oliy o‘quv yurtlariga kirish imtihonlariga tayyorgarlik ko‘rishlariga keng imkoniyatlar yaratish maqsadida **buyuraman**:

1. Quyidagilar:

umumiy o‘rta ta’lim maktablarida variativ o‘quv rejalarni tajriba-sinovdan o‘tkazish bo‘yicha yangi tahrirdagi tavsiyalar 1-ilovaga muvofiq;

2020-2021-o‘quv yili davomida umumiy o‘rta ta’lim maktablarida tajriba-sinovdan o‘tkaziladigan namunaviy variativ o‘quv rejalari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Belgilab qo‘yilsinki:

2019-2020-o‘quv yilida variativ o‘quv reja joriy etilgan umumiy o‘rta ta’lim maktablarida tajriba-sinov ishlari davom ettiriladi;

variativ o‘quv rejalarni joriy qilish umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun **ixtiyoriy** hisoblanadi;

variativ o‘quv rejalarni tatbiq qilish bo‘yicha buyruqni umumiy o‘rta ta’lim maktabining direktori tasdiqlaydi;

variativ o‘quv rejalarni joriy etish va ularning samaradorligiga shaxsan umumiy o‘rta ta’lim maktabining direktori javobgar hisoblanadi;

variativ o‘quv rejasi asosida ta’lim jarayonini tashkil etishda 2020-2021-o‘quv yiliga mo‘ljallangan tayanch o‘quv rejada belgilangan umumiy haftalik dars soatlari hajmi saqlanib qolinadi.

3. Qoraqalpog‘iston Respublikasi xalq ta’limi vaziri, Toshkent shahar xalq ta’limi bosh boshqarmasi va viloyatlar xalq ta’limi boshqarmalari boshliqlari, vazirlik tasarrufidagi respublika umumta’lim maktablari direktorlariga:

ikki hafta muddatda namunaviy variativ o‘quv rejalarni barcha umumiy o‘rta ta’lim maktablariga yetkazish;

tavsiya etilgan yo'nalishlar bo'yicha variativ o'quv reja asosida o'qitiladigan sinflarni shakllantirishda o'quvchilar va ota-onalarning xohishlari hamda maktabdagi o'qituvchilarning salohiyatini inobatga olish;

variativ o'quv rejani joriy etish, tanlov fanlarini belgilash va sinflarni shakllantirishda maktablardagi Kuzatuv kengashi orqali **muntazam** jamoatchilik nazoratini o'rnatish;

tajriba-sinov joriy etilgan maktablarga yo'nalishi bo'yicha uslubiy yordam ko'rsatish maqsadida tuman (shahar) xalq ta'limi bo'limlaridan o'quv-tarbiya jarayonini metodik ta'minlash sho'basining tegishli fan metodistini tajriba-sinov rahbari etib belgilash;

2020-yil 1-oktabrgacha variativ o'quv rejani tajriba-sinovdan o'tkazish bo'yicha umumiy o'rta ta'lim maktablari ro'yxatini Xalq ta'limi vazirligining O'quv jarayonini metodik jihatdan ta'minlashni rivojlantirish boshqarmasi (D.Ermatov)ga taqdim etish;

ushbu ro'yxat asosida umumiy o'rta ta'lim maktablarida variativ o'quv rejalarini tajriba-sinovdan o'tkazish ishlarini tashkil etish va ularga doimiy uslubiy yordam ko'rsatish;

tajriba-sinov ishlari to'g'risida har chorak yakunida vazirlikka ma'lumot taqdim etib borish vazifalari yuklatilsin.

4. Respublika ta'lim markazi (X.Daminov)ga:

joriy yil 1-avgustga qadar variativ o'quv rejalar bo'yicha o'quv dasturlar va namunaviy taqvim-mavzu rejalarini ishlab chiqish;

variativ o'quv reja asosida o'qitiladigan sinf o'quvchilarining bilimlarini choraklik, oraliq nazorat ishlari va o'quv yili yakuniy imtihon natijalari yuzasidan monitoring olib borish;

2021-yil 1-aprelgacha variativ o'quv reja asosida o'qitiladigan sinf o'quvchilari uchun yakuniy davlat attestatsiyasi va bitirish imtihonlari olinadigan fanlarni belgilash va tasdiqlash haqidagi buyruq loyihasini kiritish vazifalari topshirilsin.

5. O'quv jarayonini metodik jihatdan ta'minlashni rivojlantirish boshqarmasi (D.Ermatov), Respublika ta'lim markazi (X.Daminov)ga:

joriy yilning avgust oyida hududiy xalq ta'lim boshqarmalari uchun umumiy o'rta ta'lim maktablarida variativ o'quv rejalarini joriy etish yuzasidan videoseminar tashkil etish;

2020-yil 15-oktabrgacha tajriba-sinov o'tadigan umumiy o'rta ta'lim maktablari ro'yxatini respublika bo'yicha umumlashtirish vazifalari yuklatilsin.

6. Jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari bilan aloqalar bo'limi (A.Umarov) umumiy o'rta ta'lim maktablarida variativ o'quv rejalarini joriy qilinishining mazmun-mohiyati haqidagi ma'lumotlarni vazirlikning veb-sayti va ommaviy axborot vositalarida yoritib borsin.

7. Ushbu buyruq qabul qilinishi munosabati bilan Xalq ta'limi vazirining 2019-yil 28-dekabrda "Umumiy o'rta ta'lim maktablarida variativ o'quv rejalarini tajriba-sinovdan o'tkazish to'g'risida"gi 405-sonli hamda 2020-yil 20-fevralda "Xalq ta'limi vazirining 2019-yil 28-dekabrda 405-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan umumiy o'rta ta'lim maktablarida variativ o'quv rejalarini tajriba-sinovdan o'tkazish bo'yicha tavsiyaga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi 51-sonli buyruqlari o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

8. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o'rinbosari D.Kenjayeov zimmasiga yuklatilsin.

Vazir



Sh.Shermatov

Toshkent sh.,
2020-yil "15"- iyun,
144-son